
“EFFEKT UZ” MUHBIRI TOMONIDAN FARG’ONA VILOYATI QUVASOY SHAHAR “NAMUNA” MFY HUDUDIDA JOYLASHGAN 20-MAKTABDA SPORT MAYDONI HOLATINI O’RGANISH HAMDA SPORT ZALI QURISH YUZASIDAN YO’LLAGAN MUROJAATIGA RASMIY MUNOSABAT

Quvasoy shahridagi 20-umumiy o’rta ta’lim maktabi tasarrufida bo’lgan katta futbol maydoni 2021 yilda “Far Diyorbek” xususiy korxonasi tomonidan 1-mavsum “Tashabbusli byudjet” dasturi orqali tenderda yutib olinib, 95 mln. so’m evaziga sport maydoni atrofiga temir panjaralar, yoritish chiroqlari o’rnatib berilgan va hojatxona qurib berilgan. Qurilish-ta’irlash ishlarining to’g’ri olib borilganligi yuzasidan shahar prokuraturasi xizmat tekshiruvi olib borgan.

O’tgan 2 yil davomida o’yingoxdan mahalliy aholi foydalanib kelgan.

Bugungi kunga kelib nosoz holatga kelib qolgan futbol o’yingoxining ayrim jihozlari qayta ta’irlanib, yoritish tizimidagi ochiq elektr simlari soz xolatga keltirilmoqda va yangi o’quv yiliga qadar tayyor holga keltiriladi.

Sport maydoni holatini yaxshi saqlashga mas’ul xodimlarga tegishli ko’rsatmalar berildi.

O’rganish jarayonida tasvirga olingan maktabning sobiq qozonxonasi 2008 yildan buyon faoliyat yuritmayotganligi, “Tashabbusli byudjet” dasturi orqali moliyalashtirish va qayta ta’irlanib maktab o’quvchilari uchun zarur bo’lgan qo’shimcha bino sifatida foydalanish rejalashtirilgan.

Maktab o’quvchilari uchun sport zali qurish O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 aprel kungi 221-sonli qarori bilan «Na’muna» mahallasidagi 20-son umumta’lim maktabini mukammal ta’irlash va 1 ta sport zali qurilishi rejalashtirilgan.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-08-15 10:20:50